

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

BURANOVA NILUFAR SHAVKATOVNA

**DARSDAN TASHQARI O‘QISH MASHG‘ULOTLARIDA
O‘QUVCHILARNING O‘QUV-TADQIQOTCHILIK
FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH
(umumta’lim maktabining 6–8-sinf materiallari asosida)**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(rus tili va adabiyoti)**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Buranova Nilufar Shavkatovna

Darsdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish (umumta'lim maktabining 6-8-sinf materiallari asosida)..... 3

Буранова Нилуфар Шавкатовна

Развитие учебно-исследовательской деятельности учащихся на уроках внеклассного чтения (на материале 6-8 классов общеобразовательной школы)..... 25

Buranova Nilufar Shavkatovna

Development of students' educational and research activities in extracurricular reading lessons (based on material from grades 6-8 of a comprehensive school) 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

BURANOVA NILUFAR SHAVKATOVNA

**DARSDAN TASHQARI O‘QISH MASHG‘ULOTLARIDA
O‘QUVCHILARNING O‘QUV-TADQIQOTCHILIK
FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH
(umumta’lim maktabining 6–8-sinf materiallari asosida)**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(rus tili va adabiyoti)**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.1.PHD/Ped1346 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Chjen Yelena Vitalevna

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Kadirova Munira Rasulovna

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Uluxujayev Narzulloxon Ziyoviddinovich

pedagogika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "24" dekabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, B.Mashrab ko'chasi, 4-uy. Namangan davlat universiteti majlislar zali. Tel.: (+99869) 228-85-01, faks (+99869) 228-85-02, ye-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1652 - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. Namangan davlat universiteti majlislar zali. Tel.: (+99869) 228-85-01.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "11" dekabr kuni tarqatildi.

(2024-yil "11" dekabr dagi 3 - raqamli reyestr bayonnomasi).



T.Fayzullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, s.f.d., professor

Sh.K.Xujamberdiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, p.f.d. (DSc), professor

S.X.Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi. Jahonda innovatsion bilimlarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda, shu bilan birga davlat va jamiyat oldida turgan muammolarni hal etishga ijodiy yondashish, o'z navbatida, darsdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning uslubiy muammosini ahamiyatini belgilab beradi. Globallashuv davrida jahon pedagogikasi oldida turgan zamonamizning muhim masalalaridan biri bilimli, ijodiy fikrlaydigan, mustaqil fikrlash va izlanishga qodir shaxsni shakllantirishdir. Dunyoning rivojlangan davlatlarida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarining yuksak samaralari yangi pedagogik yondashuv va texnologiyalarni doimiy ravishda joriy etishni taqozo etmoqda. Jahon ta'lim jarayonining maqsadi ijodiy fikrlaydigan, erkin mulohaza yuritadigan, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyor raqobatbardosh, malakali mutaxassislarini tarbiyalashdan iborat.

Dunyo miqyosida 2030-yilgacha bo'lgan xalqaro ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqishda e'tirof etilgan omil bu "bilimning mustahkam poydevoriga asoslangan loyiha asosida o'qitish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, o'qishga qiziqishni oshirish" hamda "o'qituvchi va o'quvchining faoliyatini modellashtirish"dir". Ushbu qoidalar ta'lim mazmuni va sifatini oshirishga qaratilgan xalqaro hujjatlarda quyidagilarni o'z ichiga olgan: Incheon deklaratsiyasi (Incheon Declaration 2015-y.), Butunjahon ta'lim forumi (World Education Forum 2020-y.), BMT Mingyillik deklaratsiyasi (UN «Millennium Declaration» 2020-y.). Shu bilan birga, dunyo miqyosidagi san'at asarlarini o'rganish jarayonida o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik faoliyati ijtimoiy-madaniy antropologiyaning bir turi sifatida baholanadi. Kitob mutolaasi, ayniqsa, darsdan tashqari kitobxonlik ijtimoiy-madaniy taraqqiyot ko'rsatkichlari sifatida belgilangan.

Mamlakatimizda inson kapitali bo'lgan sifatli ta'limga e'tibor qaratish, darsdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish muhim strategik vazifadir. "Maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish"¹ 2022-2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturning ustuvor yo'nalishlari sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Uchinchi Uyg'onish davrining hozirgi bosqichida fan va texnika sohasidagi innovatsion o'zgarishlar jarayoni o'quvchilarning barcha faoliyat turlarida, xususan, badiiy matnni o'qish va tahlil qilish jarayonida o'quv-tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishni talab qiladi, shuningdek, nostandart qarorlar qabul qilish ko'nikmalari, o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish orqali ularning bilim faolligini oshiradi. Respublikamiz

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son "2022-2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash" to'g'risidagi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022 y., 06/22/134/0407-son.

hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar o'quv-tadqiqotchilik faoliyati qobiliyatiga ega, mustaqil va innovatsion fikrlashga qodir, ijodiy va ilmiy asoslangan shaxsni tarbiyalash Yangi O'zbekistonni barpo etishning eng dolzarb masalalaridan biri ekanligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 11-maydagi PF-134-son "Xalq ta'limini 2022-2026-yillarda rivojlantirish milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim va tarbiya, fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari va Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-sonli qarori "Uzluksiz ma'naviyat ta'lim konsepsiyasi va uni amalga oshirish chora-tadbirlarini tasdiqlash to'g'risida"gi hamda shu bilan bog'liq boshqa tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik faoliyati uslublari va darsda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari L.T.Ahmedova, S.S.Magdiyeva, E.A.Lagay, N.N.Azizxo'jayeva, B.Farberman, F.R.Yuzlikayev kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Darsdan tashqari o'qishni tashkil etish va o'smirlarning bilimga qiziqishini rivojlantirish muammolarini I.Narmuratov, X.Abdullayevlar o'rgangan; K.B.Kenjebayeva o'smirlik davrida tafakkur rivojlanishining xususiyatlarini yoritib berdi. A.Abduraxmonov "O'zbek maktabining 5-6- sinflarida darsdan tashqari o'qish darslari" uslubiy tavsiyalarini taklif qildi. Ta'lim rus tilida olib boriladigan boshlang'ich sinflarda darsdan tashqari o'qish masalalari bilan O.E.Vulf, G.G.Jirnov shug'ullanganlar, shuningdek, N.F.Boyarskaya, O.E.Vulf, R.A.Mirzayevlar tomonidan 6- va 8-sinflar uchun darsdan tashqari o'qish bo'yicha hammualliflik kitoblari chop ettirilgan. Bu nashrlar o'quv qo'llanma yoki darslik emas, balki adabiyot fanini o'rganish uchun qo'shimcha darslik materialidir. Biroq bu olimlar biz ko'targan muammo, ya'ni umumta'lim maktabining 6-8-sinflarida darsdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish bilan shug'ullanmadi. Binobarin, darsdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablar 6-8-sinf o'quvchilarining o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish masalasi O'zbekistonda yetarlicha o'rganilmagan va hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi.

MDH mamlakatlarida M.G.Kachurin, A.V.Leontovich, G.K.Selevko, V.A.Slastenin, A.S.Obuxov, L.V.Basmanova, A.N.Poddyakov, Yu.L.Pigichka,

Ye.N.Kikot, O.G.Prokazova, T.D.Polozova, O.V.Yugay, S.A.Sharipov, T.G.Belova, T.L.Patrik, E.R.Vajnova, E.K.Ismailova, R.M.Abdullina kabi olimlarning ilmiy-pedagogik ishlarida maktab o'quvchilarining o'quv-tadqiqotchilik faoliyatiga e'tibor berilgan. Maktab o'quvchilarining psixologik, pedagogik va yoshga bog'liq xususiyatlarini L.S.Vygotskiy, S.L.Rubinshteyn, I.P.Podlasiy o'rgangan. O'rta sinflarda darsdan tashqari o'qish mashg'ulotlari tizimida maktab o'quvchilarining kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashda muhim o'rinni N.G.Yermilova, I.S.Zbarskiy, V.P.Poluxina, M.A.Snejnevskaya, L.G.Strelsova, V.F.Chertov, L.V.Manko va boshqalar egallagan. Darsdan tashqari o'qish mashg'ulotlari metodikasi masalalari N.E.Shchurkova, T.Kalganova, I.F.Yatsenko va boshqalar asarlarida o'rganilgan. Tadqiqotchilar I.O.Zagashev, S.I.Zair-Bek, A.V.Xutorskoy, E.S.Polat, M.Yu.Buxarkina, M.V.Moiseyeva, L.A.Kosheleva, G.Yu.Ksenzova tanqidiy fikrlash va rivojlantirish texnologiyalari masalalarini ko'rib chiqdilar.

Dunyoda o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishni o'rganishga katta e'tibor beriladi. Bu masala D.Dyui, K.Levin, J.Piaje, Maksimilian Pfof, Tobias Dorfler, Kordula Artelt, Chjan Jian, R.V.Paul, R.Driver, V.Bell Aleks Mur, Diane F.Halpern, E.P.Torrance, J.P.Guilford kabi xorijiy psixolog va pedagoglarning asarlarida ko'rib chiqilgan.

Dissertatsiya mavzusi va ish olib borilgan ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot rejaları o'rtasidagi bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari va uni o'qitish metodikasi" bandi hamda A-OT-2021461-sonli "Umumta'lim muassasalarida moliyaviy savodxonlik asoslari va fond bozorini o'rganish bo'yicha multimedia texnologiyalari asosida o'quv kurslari platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2021-2022-yy.).

Tadqiqotning maqsadi: umumta'lim maktabi 6-8-sinf o'quvchilarining darsdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

adabiyot darslarida va darsdan tashqari o'qishda o'rta sinf o'quvchilarining o'quv-tadqiqot faoliyatini shakllantirishning didaktik shartlari, amalga oshirish tamoyillari, tuzilish bosqichlari va strukturasi aniqlash;

6-8-sinflarda darsdan tashqari o'qish mashg'ulotlarining differensial algoritmlarini takomillashtirish;

o'rta sinf o'quvchilarining darsdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quv-tadqiqotchilik faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni hamda prosessual-tashkiliy asoslarini takomillashtirish;

6-8-sinf o'quvchilarining o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish darajasini baholashning tarkibiy modeli, mezonlari va ko'rsatkichlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida umumta'lim maktabi 6-8-sinf o'quvchilarining darsdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish jarayoni belgilandi. Ushbu tadqiqotda Namangan viloyati

Namangan shahridagi 1- va 34-sonli, Andijon viloyati Andijon shahridagi 24-, 41-, 43-sonli va Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahridagi 2-, 9-sonli maktablaridan 713 nafar respondent – 6-8-sinf o‘quvchilari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini 6-8-sinf o‘quvchilarining darsdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning mazmuni, shakli, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: tadqiqotda adekvat holatda o‘rganishni ta’minlashga qaratilgan metodlar: pedagogik, psixologik va uslubiy adabiyotlarni o‘rganish; nazariy (modellashtirish, qiyosiy tahlil, tahliliy-statistik); diagnostik va ijtimoiy usullar (anketa, suhbat, intervyu, kuzatish); prognostik (test sinovi, baholarni umumlashtirish); pedagogik kuzatish; modellashtirish; pedagogik eksperiment; matematik statistika (ma’lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash) majmui qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

6-8-sinf o‘quvchilarining adabiyot darslari va darsdan tashqari o‘qishdagi o‘quv-tadqiqot faoliyatini shakllantirishning didaktik shartlari, amalga oshirish tamoyillari, tashkil etish bosqichlari va tuzilishi ta’limning vertikal va gorizontal mazmundagi integratsiyani belgilash asosida o‘quv-tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish uchun qiziqish, idrok etish va badiiy asarlarga qadriyatli munosabat kabi tarkibiy qismlarni shakllantirishga kompetentsiyaviy yondashuv orqali aniqlangan;

6-8-sinflarda darsdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarini tashkil etishning differensial algoritmlari kognitiv-kommunikativ, shaxsga yo‘naltirilgan ilmiy yondashuvlar asosida o‘quv mazmunining didaktik yo‘naltirilganligini nutq faoliyatining barcha turlarini rivojlantirish tamoyillari bilan uyg‘unligini ta’minlash, faoliyat intensivligiga ustuvorlik berish orqali rus, o‘zbek va xorijiy badiiy adabiyotlarni o‘rganish jarayonida o‘quv-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish jarayoni takomillashtirilgan;

darsdan tashqari o‘qish darslarida 6-8- sinf o‘quvchilarining o‘quv-tadqiqot faoliyati ko‘nikmalarini rivojlantirish mazmuni, protsessual va tashkiliy asoslari zamonaviy umumpedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan tizimli foydalanish orqali rus, o‘zbek va xorijiy badiiy adabiyotni o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchilar va o‘quvchilar faoliyati uchun aniq tartiblangan algoritmlarini ishlab chiqilib, takomillashtirilgan;

6-8-sinf o‘quvchilarining o‘quv-tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirish darajasini baholashning tarkibiy modeli, mezonlari va ko‘rsatkichlari abstraksiya, tahlil, qidiruv vazifalari, mantiqiy fikrlash va matnning immanent baholash kabi ko‘rsatkichlarni kiritish orqali aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

6-8-sinf o‘quvchilarining o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribani tahlil qilish asosida darsdan tashqari mashg‘ulotlarni o‘tkazishning xususiy texnologiyalari va adabiyot o‘qituvchilari uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma ishlab chiqildi (DGU № 29502 «Развитие исследовательской деятельности учащихся на уроках внеклассного чтения (на материале 6-8 классов общеобразовательной школы)»);

oʻrta sinf oʻquvchilarini kitob oʻqishga undashga qaratilgan pedagogik faoliyat shakllari takomillashtirildi va rivojlantiruvchi yondashuv asosida oʻquv-tadqiqotchilik koʻnikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari belgilandi (Pedagogik yangi metodikalarga oʻrgatish Namangan viloyati milliy markazining 2023- yil 17- oktabrdagi maʼlumotnomasi);

“Qisqa javob va toʻliq maʼlumotli savollar”, “Sinkveyn”, “Insert strategiyasi”, “Oltita fikrlash qalpoqlari”, 4K, TRIZ-texnologiyalari, sinektika, adabiy oʻyinlar kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalangan holda darsdan tashqari oʻqish mashgʻulotlarida oʻrta sinf oʻquvchilarining oʻquv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish boʻyicha eksperiment oʻtkazildi;

umumtaʼlim maktablari 6-8-sinf oʻquvchilarining darsdan tashqari oʻqish mashgʻulotlarida oʻquv-tadqiqotchilik koʻnikmalarini rivojlantirish darajasini baholash koʻrsatkichlari va mezonlari ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi shaxsni rivojlantirish nazariy metodologiyasi (kognitiv dialektika, darslar va maktabdan tashqari taʼlim mazmuni, pedagogik jarayonni tahlil qilishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv) mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar hamda pedagogik taʼlim sohasidagi amaliyotchilar ishi bilan taʼminlanadi; tadqiqot maqsadlariga mos keladigan va bir-birini toʻldiradigan tadqiqot usullaridan foydalaniladi; ishonchli matematik va statistik tahlil yordamida olingan, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan natijalar tahlil qilinadi; tadqiqot natijalari tahlilining miqdoriy va sifat xususiyatlari taʼminlanadi. Olingan natijalar amaliy faoliyatga tatbiq etish orqali aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati 6-8-sinf oʻquvchilarining darsdan tashqari oʻqish mashgʻulotlarida oʻquv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish, ularning imkoniyatlari, nazariy-uslubiy va tashkiliy asoslari, shuningdek, maktab taʼlimi mazmunini boyitishga qaratilgan zamonaviy vositalar hamda uslublarni ishlab chiqish muhimligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining **amaliy** ahamiyati shundaki, darsdan tashqari oʻqish mashgʻulotlarida oʻquvchilarning oʻquv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish mexanizmi takomillashtirildi; darsdan tashqari oʻqish mashgʻulotlarida tadqiqot ishlari jarayonida oʻquvchilarning oʻquv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan amaliy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. 6-8-sinf oʻquvchilarning darsdan tashqari oʻqish mashgʻulotlarida oʻquv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishda olingan ilmiy natijalar quyidagicha amaliyotga tatbiq etildi:

6-8-sinf oʻquvchilarining adabiyot darslari va darsdan tashqari oʻqishdagi oʻquv-tadqiqot faoliyatini shakllantirishning didaktik shartlari, amalga oshirish tamoyillari, tashkil etish bosqichlari va tuzilishi taʼlimning vertikal va gorizontal mazmundagi integratsiyani belgilash asosida oʻquv-tadqiqot faoliyatini ragʻbatlantirish uchun qiziqish, idrok etish va badiiy asarlarga qadriyatli munosabat kabi tarkibiy qismlarni shakllantirishga doir taklif va tavsiyalardan 2022-yili Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi nashrga tavsiya etgan umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 6-8-sinfi uchun darsliklar (yangi nashr)ni yaratishda foydalanilgan (Maktabgacha va maktab taʼlimi Vazirligi huzuridagi

Respublika ta'lim Markazining 2024-yil 29-oktabrdagi № 01/11-1-870-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, adabiyot darslarida va darsdan tashqari o'qishda o'quvchilarining o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga erishilgan;

6-8-sinflarda darsdan tashqari o'qish mashg'ulotlarini tashkil etishning differensial algoritmlari kognitiv-kommunikativ, shaxsga yo'naltirilgan ilmiy yondashuvlar asosida o'quv mazmunining didaktik yo'naltirilganligini nutq faoliyatining barcha turlarini rivojlantirish tamoyillari bilan uyg'unligini ta'minlash, faoliyat intensivligiga ustuvorlik berish orqali rus, o'zbek va xorijiy badiiy adabiyotlarni o'rganish jarayonida o'quv-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalaridan YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda "Umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish dasturi" doirasida amalga oshirilgan (Maktabgacha va maktab ta'limi Vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim Markazining 2024-yil 29-oktabrdagi № 01/11-1-870-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, umumta'lim maktabining o'rta sinflarida adabiyot darslari va darsdan tashqari o'qishda o'quv subyektlarni o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishning amaliy ahamiyati darajasini oshishga erishildi;

darsdan tashqari o'qish darslarida 6-8-sinf o'quvchilarining o'quv-tadqiqot faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni, protsessual va tashkiliy asoslari zamonaviy umumpedagogik texnologiyalar va interfaol mashqlardan tizimli foydalanish orqali rus, o'zbek va xorijiy badiiy adabiyotni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyati uchun aniq tartiblangan algoritmlarini ishlab chiqilib, takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan "Umumta'lim muassasalarida moliyaviy savodxonlik asoslari va fond bozorini o'rganish bo'yicha multimedia texnologiyalari asosida o'quv kurslari platformasini yaratish" nomli 2021-2022-yillarda amalga oshirilgan A-OT-2021461-sonli amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 24-oktabrdagi 04/11-6926-son ma'lumotnomasi). Natijada 6-8-sinflarda darsdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik faoliyati darajasi va mexanizmlarini ishlab chiqish samaradorligini oshirishga erishildi;

6-8-sinf o'quvchilarining o'quv-tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirish darajasini baholashning tarkibiy modeli, mezonlari va ko'rsatkichlari abstraksiya, tahlil, qidiruv vazifalari, mantiqiy fikrlash va matnning immanent tahlili kabi ko'rsatkichlarni kiritish orqali aniqlashga doir amaliy tavsiyalaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" teleradiokanali DM "Madaniy va marifiy eshittirishlar" "Ta'lim va taraqqiyot", "Bolalar va biz", "Adabiy jarayon", "Jahon adabiyoti" nomli radiodasturlarni tayyorlashda ssenariylar doirasida foydalanilgan. (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi 2023-yil 27-oktabrdagi 04-36-1607-sonli ma'lumotnomasi). Natijada 6-8-sinflarda darsdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha asosiy kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha uslubiy ta'minotni yaxshilashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanlarida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo’yicha 26 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan 10 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan pedagogika fanlari bo’yicha asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun tavsiya etilgan jurnallarda: 7 ta maqola respublika jurnallarida, 3 tasi xorijiy nashrlarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, glossariy va ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy matn 135 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo’yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Darsdan tashqari o‘qish jarayonida umumta’lim maktablari o‘quvchilarining o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ijtimoiy-tarixiy an‘analar va o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini shakllanishi va rivojlanishi muammosiga zamonaviy yondashuvlar, O‘zbekistondagi umumta’lim maktablari 6-8-sinf o‘quvchilarining o‘quv-tadqiqotchilik faoliyati mazmuni va shakllanishining asosiy bosqichlarini tahlili keltirilgan, shuningdek, o‘quv-tadqiqotchilik faoliyat jarayonida o‘quvchilarda kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishning zamonaviy holati va konsepsiyasi yoritilgan.

Ishda tadqiqot g‘oyasi dunyoni anglash usuli va o‘qitish usullari, shuningdek, umumta’lim maktabining 6-8-sinflarida adabiyot darslarida o‘quvchilarning o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatida eksperiment tashkil etish ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqot ishi jarayonida pedagogik nuqtai nazardan **“o‘quv-tadqiqotchilik faoliyat”**, **“6-8-sinf o‘quvchilarining darsdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish”** kabi asosiy tushunchalar izohlandi; darsdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida o‘quvchilarda o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishning mazmuni va pedagogik shartlari belgilanib, quyidagi mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan: **“Darsdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning o‘quv-tadqiqotchilik faoliyati – bu o‘quvchilarining mustaqil va kreativ fikrlash, o‘zlari nimanidir ixtiro qilish, muammolarni hal qilish yo‘llarini topish qobiliyatidir, biroq bu qarorlarning natijasi oldindan noma’lum”**.

Maktab o‘quvchilarining o‘quv-tadqiqotchilik faoliyati eng muhim pedagogik muammolardan biri bo‘lib, antik davr va Sharq mutafakkirlarining, bu masalani o‘rganayotgan zamonaviy olimlarning fundamental fikrlariga asoslanib, zamonaviy yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqot – obyekt yoki hodisani aniq maqsadli, lekin dastlab noma'lum natija bilan o'rganishning ijodiy jarayonidir. Insoniyat madaniyatida faoliyatning maxsus sotsial-madaniy normalari shakllangan bo'lib, ularni hozir tadqiqotchilik faoliyati deb ataymiz. U o'quv-tadqiqotchilik faoliyati va o'quv-tadqiqotchilik xulqqa asoslanadi, lekin ulardan farqli o'laroq, u ongli, maqsadli va madaniy vositalar bilan qurilgan.

Zamonaviy o'quv jarayonida o'quv materialni o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga moslashtirish zarurati ta'lim psixologiyasi, didaktikasi va metodologiyasining umumiy muammosi sifatida tushuniladi. Ushbu yosh guruhini tanlashni tushuntirish maqsadida biz psixologik-pedagogik tahlil qildik. Psixologlar quyidagi yosh guruhlarini va ular bilan bog'liq bo'lgan maktab o'quvchilarining yetakchi motivlari: kichik, o'rta va yuqori sinf o'quvchilarini ajratadi.

O'rta maktab yoshi (11-12 yoshdan 15 yoshgacha) – bu bolalikdan o'smirlikka o'tish davri, maktab ta'limiga (6-8-sinflar) to'g'ri keladi va butun tanani batafsil qayta qurish bilan tavsiflanadi, shu bilan birga bu davr ijodiy rivojlanish uchun eng muhim hisoblanadi. Bu yosh guruhiga yetakchi motivlar xosdir. Ushbu bosqichda o'quvchilar muammoli vaziyatlarni yechimini topish, o'xshashlik va farqlarni topish, sabab va oqibatlarni aniqlashdan zavqlanadilar. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'smirlar uchun sezitivdir. Ularni amalga oshirish jarayonida talabalar o'z fikr va mulohazalarini bildirishlari, muammolarni mustaqil ravishda hal qilishlari, muhokamalarda qatnashishlari va hok. Muayyan yoshga mos keladigan tadqiqot ishlarining shakllari, asosan, guruh xarakteriga ega bo'lib, o'quv faoliyati va o'yin elementlarini o'z ichiga oladi. Bularga ijodiy topshiriqlar, tanlovlar, o'quv o'yinlari va boshqalar kiradi.

Bizning fikrimizcha, ushbu yosh toifasi uchun tadqiqot ishlarining ustun shakllari ilmiy tadqiqot asoslarini singdirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bularga tadqiqot usullari, loyihalari, ijodiy ishlar, o'quv o'yinlari, fan haftaliklari, olimpiadalar, tanlov, fan to'garaklari, darsdan tashqari o'qish mashg'ulotlari kiradi.

Biz tanlagan o'quvchilar kontingenti maktab ta'limining ushbu davrida, ya'ni 6-8-sinflarda darsdan tashqari o'qishga, xususan, va o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik faoliyatiga, umuman, e'tibor berilmagani bilan bog'liq.

6, 7 va 8-sinflarda "Adabiyot" fanidan o'rganilgan maktab ish dasturlari tahlili shuni ko'rsatadiki, bu bosqichda darsdan tashqari o'qishga deyarli soat ajratilmaydi, aksincha, boshlang'ich va yuqori sinflarda esa bu jihatga yetarlicha e'tibor qaratiladi.

Maktab o'quvchilarining bu yosh guruhining yuqoridagi psixologik-pedagogik sharhi shuni aniq ko'rsatadiki, umumta'lim maktabining 6-8-sinflari uchun maktab o'quv dasturiga "Darsdan tashqari o'qish" fanini o'rta sinf o'quvchilarining o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish uchun kiritish zarur.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Darsdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida 6-8-sinf o'quvchilarining o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning didaktik asoslari"** deb nomlangan bo'lib, unda o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari va tamoyillari, shuningdek, shuningdek,

o'quvchilarning darsdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quv-tadqiqotchilik ishlarini olib borishni ta'minlovchi kompetensiyalarini o'zlashtirishi o'rganiladi.

Hozirgi kunda Yangi O'zbekistonda ta'limning eng muhim vazifasi o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik faoliyatiga, xususan, umumta'lim maktablarining 6-8-sinflarida darsdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida yo'naltirilgan o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.


Izlanish va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida biz o'quvchilarni o'quv-tadqiqotchilik faoliyatining asosiy didaktik shartlari kompetensiyalarni rivojlantirish bilan bog'liq degan xulosaga keldik:

1-jadval

O'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik faoliyati va kompetensiyalarning didaktik shartlari

Didaktik shartlar	Kompetensiyalar
yangi bilim olish	tushunchalarni shakllantirish; qonuniyatlarni aniqlash; asarlar parchalardagi bayonotlarning dalillarini topish, iqtibos keltirish
bilimlarni chuqurlashtirish	to'liqroq kengaytirilgan ma'lumotlarni olish; ilgari o'rganilgan adabiy materialni umumlashtirish
olingan bilimlarni tizimlashtirish	tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish; bir muallif yoki bir nechta yozuvchilarning ishlari, shoirlarining ishlari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash; o'quv materiallarini tizimlashtirish
o'quvchilarning bilimlarini rivojlantirish	o'quvchilarni ta'lim obyektidan boshqarish subyektiga aylantirish, fikrlashning mustaqilligini shakllantirish
o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik faoliyati	kognitiv faoliyatni va ma'lumotni mustaqil izlash, bilim olishga intilishini rivojlantirish

O'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish va tegishli kompetensiyalarni shakllantirish uchun yuqorida ko'rib chiqilgan didaktik shartlardan kelib chiqib, biz o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik faoliyati poydevor bo'ladigan asosiy tamoyillarning sxemasini taqdim etamiz:



1-rasm. O'quv-tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirish tamoyillari

Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish muammosini hal qilishda, o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini tashkil

etishning quyidagi tamoyillarini belgilab oldik: integratsiya tamoyili; uzluksizlik tamoyili; o'zgaruvchanlik tamoyili.

O'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga yondashuvlarni tahlil qilinganda, turli xil rivojlanish dasturlarida qo'llaniladigan vositalar to'plamidagi ba'zi farqlarga qaramay, o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini qurish bosqichlari bir xil (2-rasm), ya'ni:



2-rasm. O'quv-tadqiqotchilik faoliyati bosqichlari

Shunday qilib, o'quv-tadqiqotchilik faoliyatining didaktik shartlari – yangi bilimlarni olish yoki tadqiqot maqsadiga erishish yo'lidir. Bu ilmiy bilimlarni egallashga qaratilgan turli kognitiv yondashuvlar va amaliy operatsiyalar majmuasidir. O'quv tadqiqotining asosiy vazifasi – rivojlantiruvchi funksiyani amalga oshirish, uning davomida o'quvchilarda o'qish va adabiyotga barqaror qiziqish uyg'otadi; bilim sifati ortadi.

Tadqiqotimizning obyekti o'quv-tadqiqotchilik faoliyati darsdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida bo'lganligi sababli, uning ta'rifiga aniqlik kiritish zarur.

Darsdan tashqari o'qish – bu o'quvchilarni individual va ijtimoiy ahamiyatga ega qiziqish va ehtiyojlarga mos ravishda mustaqil kitob o'qishga tayyorlashning pedagogik jihatdan tashkil etilgan jarayoni. 6–8-sinf o'quvchilarining darsdan tashqari o'qish doirasi boshlang'ich sinflarga nisbatan ancha kengaymoqda. Bu klassik va zamonaviy adabiyotlar, ilmiy-fantastik va ilmiy-ommabop adabiyotlar, o'quvchilarning amaliy faoliyatiga yordam beradigan qo'llanmalar va boshqalar.

Ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish asosida umumiy xulosaga kelamizki, darsdan tashqari o'qish maktab o'quv dasturiga kiritilmagan kitoblarni o'quvchilar tomonidan pedagogik jihatdan tashkillashtirilgan o'qishdir.

Biroq, yuqoridagi tahlil bizga “darsdan tashqari o‘qish” ta’rifidagi ba’zi farqlarni ko‘rishga imkon beradi, masalan:

1. O‘qish bo‘limi.
2. Maktab predmeti.
3. O‘quvchilarni mustaqil kitob o‘qishga tayyorlash jarayoni.
4. Adabiy qiziqish va didni, kitobxonlikni sevishni rivojlantirish.

Ta’lim rus tilida olib boriladigan maktabning 6, 7, 8-sinflarida adabiyot fanidan ish dasturlari va kalendar-tematik rejalarini o‘rganar ekanmiz, darsdan tashqari o‘qish bo‘yicha an’anaviy ishlar boshlang‘ich sinflarda samarali bo‘lganini, o‘rta sinflarda esa bu unutilganini o‘zgachaligini aniqladik, ya’ni, 6-sinfda o‘quv yili davomida ushbu faoliyat turiga 4 soat (mustaqil o‘qish uchun 3 soat va loyiha ishi uchun 1 soat), 7-sinfda loyiha ishlari uchun 2 soat ajratilgan, 8-sinfda ushbu jihatga yetarlicha e’tibor berilmagan.

Ishlab chiqilgan dasturimizda maktabda adabiyotni o‘rganish kursiga oid darsdan tashqari o‘qishning quyidagi mavzularini taklif qilamiz:

2-jadval

Maktabda dastur bo‘yicha o‘rganiladigan adabiyot darslari mavzulari va darsdan tashqari o‘qish mavzulari

№	Muallif	Maktab dasturining mavzusi	Darsdan tashqari o‘qish mavzusi
6-sinfda			
1	A.S. Pushkin	“Qish tongi”, “Bashoratli Oleg haqida qo‘shiq”	“Belkin qissalari”. “Bo‘ron”
2	A.P. Chexov	“Semiz va oriq”, “Jarrohlik”	“Vanka”, “O‘ta tuzlangan”
3	V.K. Jeleznikov	-	“Qo‘riqchi”, “6 “B”dagi tentak”
4	A.Navoiy	Ruboiylar	G‘azallar
5	R.L. Stivenson	-	“Yashirin xazinalar oroli”
7-sinfda			
1	N.V. Gogol	“Taras Bulba”	“Dikanka yaqinidagi qo‘rg‘oncha oqshomlari”
2	M.Yu. Lermontov	“Podsho Ivan Vasilevich yosh xizmatkor va jasur savdogar Kalashnikov haqida qo‘shiq”	“Farishta”
3	M.Ye.Saltikov- Shchedrin	“Bir cho‘ri qanday qilib ikki generalni ovqatlantirgani haqida hikoya”	“Yovvoyiy pomeschik”
4	G‘. G‘ulom	“Shumbola”	“Sen yetim emassan”
5	D. London	-	“Oq tish”
8-sinfda			
1	I.S. Turgenev	“Asya”	“Xo‘r va Kalinich”
2	L.N. Tolstoy	“Baldan keyin”	“Kavkaz asirasi”
3	N.M. Rubsov	Lirik asarlar	“Mehmonxonada”
4	X. Olimjon	“Bolalik”	“Yangilanish”
5	U. Shekspir	“Romeo va Julietta”	She‘rlar va sonetlar

Darsdan tashqari o‘qish adabiyotni o‘qitishning elementi sifatida maktabda nafaqat adabiyot darsining bir qismi sifatida, balki uni qo‘shimcha dastur va tadbirlar doirasida ham o‘rganish mumkin, masalan, “Kitobsevar xalq”, “Ota-onalar bilan o‘qiymiz”, darsdan tashqari darslarda, oilada, mahallada.

Maktabning o‘rta sinflarida darsdan tashqari o‘qish darslarida o‘quvchilarning o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalari “Qisqa javob va to‘liq ma’lumotli savollar”, “Sinkveyn”, “Insert-strategiyasi”, “Oltita fikrlash qalpoqlari”, adabiy viktorina, trening-o‘yin, adabiy o‘yin, adabiy portret, shuningdek, bahs-munozara darsi, maktab teatri modeli va boshqalardan foydalandik.

O‘ylaymizki, yuqoridagi texnologiya, uslub va usullar o‘smir o‘quvchilarning kitob o‘qish jarayonida ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga, o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Ishda ustunlik qiladigan tadqiqot usuli va uslubiga ko‘ra, darsdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga ham tegishli bo‘lgan quyidagi o‘quv-tadqiqotchilik faoliyati turlarini va bunday ish jarayonida o‘quvchilar egallaydigan malakalarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

3-jadval

6-, 7-, 8-sinf o‘quvchilarining darsdan tashqari o‘qish darslarida o‘quv-tadqiqotchilik kompetensiyalari

6-sinf			
Darsdan tashqari dars mavzulari	Dars turi	Texnologiya	Kompetensiya
A.S. Pushkin “Belkinning qissalari”. “Bo‘ron”	interaktiv	«Insert-strategiya»	muammoni aniqlash qobiliyati; zarur ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish
A.P. Chexov Hikoyalar	interaktiv	o‘quv o‘yini, adabiy portret	muammoni, mavzuni, muallifning pozitsiyasini, lingvistik va kompozitsion xususiyatlarni aniqlash qobiliyati
V.K. Jeleznikov “Qo‘riqchi”, “6 “B”dagi tentak”	dars-munozara	sinektika, adabiy viktorina	savol bermoq; tushunchalarni aniqlash; fikrlarni ifodalash
A. Navoiy G‘azallar	dramatizatsiya darsi	o‘quv teatri	ijodiy fikrlash qobiliyati, muammoli vaziyatlardan chiqish yo‘lini topish
R. Stivenson “Yashirin xazinalar oroli”	musobaqa darsi	sinkveyn	ijodiy va izlanish xarakteridagi muammolarni hal qilish usullarini mustaqil ravishda yaratish; rejalashtirish, mulohaza yuritish, vaziyatda orientatsiya; o‘zini boshqarish.
7-sinf			
N.V. Gogol “Dikanka yaqinidagi qo‘g‘oncha oqshomlari”	interaktiv	adabiy o‘yin	muammoni, mavzuni, muallifning pozitsiyasini, lingvistik va kompozitsion xususiyatlarni aniqlash qobiliyati: savol bermoq;


M.Yu. Lermontov “Farishta”	interaktiv	o‘quv teatri modeli	bilimlarni tizimlashtirish: matn materialini modellashtirish; muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuv
M.Ye.Saltikov- Shchedrin “Yovvoiy pomeshchik”	interaktiv	“Fishboun”	gipotezalarni ilgari surish va asoslash, maqsadlarni belgilash va faoliyatni rejalashtirish asosida muammolarni ko‘rish va hal qilish
G‘. G‘ulom “Sen yetim emassan”	tadqiqot darsi	o‘quvchilar tayyorlagan slaydlardan foydalanish	kompyuter texnologiyalari va multimedia yaratish uchun grafik muharriri bilish
D. London “Oq tish”	interaktiv	adabiy ustaxona	materialni tahlil qilish, sintez qilish, taqqoslash, tasniflash; mantiqiy fikrlash zanjirini qurish
8-sinf			
I.S. Turgenev “Xo‘r va Kalinich”	badiiy matnning tahlili darsi	“Sinkveyn”	asarni badiiy tahlil qilish, fikr yuritish: asosiy narsani ajratib ko‘rsatish qobiliyati
L.N. Tolstoy “Kavkaz asirasi”	innovatsion dars	“Oltita fikrlash qalpoqlari”	materialning tizimlashtirish; tasniflash; kuzatmoq; tajribalar o‘tkazish;
N.M. Rubsov “Mehmonxonada”	tadqiqot darsi	stol o‘rtasidagi qalam	jamoada ishlash, fikr va g‘oyalarni ifoda etish, o‘z g‘oyalarini isbotlash va himoya qilish qobiliyati;
X. Olimjon “Yangilanish”	adabiy ekskursiya darsi	“Qisqa javob va to‘liq ma’lumotli savollar”	farazlarni ilgari surish; xulosalar chiqarish; tanqidiy fikrlash qobiliyati; muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyati; tanqidiy fikrlashni rivojlantirish
U. Shekspir She’rlar va sonetlar	interaktiv	kvest-o‘yin	eng maqbul usullarni tanlash, tajriba o‘tkazish, tadqiqot natijalarini taqdim etish

O‘rganish davomida olingan natijalar asosida darsdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirishning tuzilmaviy-funksional modeli ishlab chiqildi.

O‘quvchilarning o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirishning tuzilmaviy-funksional modeli nazariy-uslubiy, kontent-komponent, jarayon komponentlari va natijaviy komponentlarni o‘z ichiga oladi.

Modelni ishlab chiqish jarayonida bir nechta muammolarni hal qilish nazarda tutilgan edi:

- 1) talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish modelini ishlab chiqishning uslubiy yondashuvlarini aniqlashtirish;
- 2) modelning tuzilishi va bloklarini aniqlash;
- 3) modelning bloklari va elementlari o‘rtasidagi munosabatni aniqlash;
- 4) blok-tuzilma va model elementlarining xarakteristikasi.



3-rasm. 6-8-sinflarda darsdan tashqari o’qish mashg’ulotlarida o’quvchilarning o’quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish tuzilmaviy-funksional modeli

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Ta’lim rus tilida olib boriladigan umumta’lim maktabi 6-8-sinf o’quvchilarining o’quv-tadqiqotchilik faoliyati bo’yicha sinov-tajriba ishi**” deb nomlangan bo’lib, o’rganilayotgan sinflarda tajribalar o’tkazish va 6-8-sinf o’quvchilarining o’quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish daraja diagnostikasiga bag’ishlangan.

Ta’limning umumta’lim maktablarda darsdan tashqari adabiyotni o’qish mashg’ulotlarida o’quvchilar o’quv-tadqiqotchilik faoliyati pedagogikaning yetarlicha o’rganilmagan yo’nalishi bo’lib, aniq uslubiy ta’minot, o’quv materiali va o’qitish metodikasini talab qiladi.

Darsdan tashqari o’qish mashg’ulotida o’quvchilarning o’quv-tadqiqotchilik faoliyati darajasini o’rganish maqsadida ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarning 6, 7, 8-sinflarida darsdan tashqari mashg’ulotlar o’tkazdik. Shu maqsadda biz maktab o’quv dasturi va sinf darslarida o’rganish uchun mo’ljallangan maktab darsliklarini tahlil qilish ma’lumotlari asosida darsdan tashqari o’qish dasturi va dars mavzularini ishlab chiqdik.

Bundan tashqari, 6-8-sinflarda darsdan tashqari o’qish darslarida o’quvchilarning o’quv-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishni tashkil etishga ko’maklashuvchi va adabiyot o’qituvchisi, shuningdek, bo’lajak adabiyot o’qituvchisi uchun qo’llanma bo’lib xizmat qiladigan o’quv-uslubiy qo’llanma ishlab chiqdik.

Darsdan tashqari o’qish mashg’ulotlarida 6-8-sinf o’quvchilari bilan ishlash va tadqiqotning eksperimental qismini o’tkazishda badiiy matnni tahlil qilishda o’quv-tadqiqotchilik ko’nikmalarini rivojlantirishni baholash mezonlarini belgilab oldik.

4-jadval

Badiiy matnni tahlil qilishda o’quv-tadqiqotchilik ko’nikmalarini rivojlantirishning baholash mezonlari

Tadqiqot kompetensiya mezonlari	O’quvchilar ishining mezonlari	Baho
Asar mavzusini aniqlash mezonlari	Mavzuni, shuningdek matnning asosiy g’oyasini aniqlay oladi (syujet)	5
	Matnning faqat mavzusini aniqlay oladi va yoza oladi, lekin asar syujetini aniqlay olmaydi	4
	Berilgan matnning mavzusi va asosiy g’oyasini aniqlay olmaydi	3
O’rganilayotgan matn bo’yicha reja tuzish mezonlari	Barcha semantik qismlarni aks ettiruvchi qismlarning to’g’ri ketma-ketligi bilan reja tuzadi	5
	Oddiy reja tuzadi, lekin qismlar ketma-ketligi buziladi	4
	Reja tuza olmaydi	3
